

**O'ZBEKISTONDA QIZAMIQ KASALLIGI BILAN KASALLANISHNING 2013-2023
YILLARDAGI RETROSPEKTIV EPIDEMIOLOGIK TAHLILI**

Tilyaxodjayeva G

Farg'ona Jamoat Salomatligi tibbiyot instituti

Rustamova Dilrabo

2- son Farg'ona Abu Ali ibn Sino

nomidagi jamoat salomatligi texnikumi.

Mavzuning dolzarbligi: Qizamiq barcha yosh guruhlariga ta'sir qiluvchi va og'ir asoratlarga olib keladigan eng yuqumli virusli kasalliklardan biridir . Jahon

Sog'liqni Saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra qizamiq infeksiyasidan dunyo bo'yicha 1980 yilda 2,6 million kishi, 1990 yilda 545 ming kishi vafot etdi, 2014 yilga kelib global emlash dasturlari qizamiqdan o'lim sonini 73 ming kishiga kamaytirdi. Ushbu tendensiyalarga qaramay, kasallik va o'lim ko'rsatkichlari 2017 yildan 2019 yilgacha immunizatsiya kamayganligi sababli o'sdi. Hozirgi vaqtda qizamiqqa qarshi o'tkazilayotgan profilaktik chora-tadbirlar ma'lum darajada samaradorligini namoyon etgan bo'lsada hali yetarli darajada deb bo'lmaydi. Bunday holatni respublikamiz aholisi orasida kasallikning yildan yilga qayd etilishi, oxirgi yillarda biroz ko'paygani tasdiqlaydi .

Tadqiqot maqsadi: O'zbekiston Respublikasida 2013-2023 yillar davomida qizamiq infeksiyasi bilan kasallanish holatlarini retrospektiv tahlilini o'tkazish asosida qizamiq kasalligiga qarshi profilaktik chora tadbirlarni takomillashtirish. Tadqiqot materiallari va usullari: Qizamiq infeksiyasi bilan aholining kasallanish holatlarini o'rganish maqsadida epidemiologik tahlil o'tkazish uchun

O'zbekiston Respublikasi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmatining qizamiq infeksiyasi to'g'risidagi statistik ma'lumotlar va hisobot materiallaridan foydalanildi. Tadqiqot olib borish jarayonida epidemiologik tekshish usullari, xususan, retrospektiv epidemiologik tahlil usulidan foydalanildi. Tadqiqot natijalari: Qizamiqning epidemiologik xususiyatlarini aniqlashda epidemiologik tahlil usullarini qo'llash, xususan kasallanishning ko'p yillik dinamikasining tahlili, epidemik jarayon tendentsiyasini, davriylikni va nomuntazam epidemik tebranishlarni o'rganish imkoniyatlarini beradi. O'zbekiston Respublikasida

2013-2023 yillar davomida ro'yxatga olingan qizamiq kasalligining tahlil natijalari shuniko'rsatadiki, kasallanishning intensiv ko'rsatkichi, turli yillarda 100 ming aholiga nisbatan 0,4-12,5 intensiv ko'rsatkichlarda qayd etilganligi aniqlandi .

Tahlilning dastlabki yili - 2013 yilda respublikamizda qizamiq bilan kasallanishning intensiv ko'rsatkichi 0,4 ni tashkil qilgan va tahlil etilayotgan yillar mobaynida 2012, 2013, 2016, 2017 yillar davomida kasallanish kuzatilmagan. Eng yuqori ko'rsatkich 2020 yilda qayd etilgan bo'lib, ushbu yilda intensiv ko'rsatkich 12,5 ni tashkil qilgan. 2009 yili qizamiq bilan kasallanish ro'yxatga olinmagan. 2013-2014 yillarda esa kasallanish ko'rsatkichida o'sish tendentsiyasi kuzatilgan. 2014 yilda kasallikning intensiv ko'rsatkichi 1,7 ni tashkil etgan, bu esa 2013 yilga nisbatan 4 marta ortganligini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasida eliminatsiyaga erishish va qizamiq bo'yicha epidemic samaradorlikni saqlab qolish uchun O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash Vazirligi tomonidan respublikaning barcha hududlarida qizamiq va qizilchaga qarshi vaktsinatsiya o'tkazilishi to'g'risida qaror qabul qilingan. 2014 yilning 12 sentyabridan 18 sentyabriga qadar 1 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan bolalar qamrovi qizamiq va qizilcha bo'yicha ommaviy immunizatsiya kampaniyasi o'tkazildi va 8 mln. 443 ming, ya'ni 99,9% bolalar qizamiqqa qarshi emlash bilan qamrab olindi. Qo'shimcha tozalash immunizatsiya holatlari 2013 yil dekabr oyida o'tkazildi va tadbirlar davomida qo'shimcha 40 mingdan ko'proq odamlar emlashga jalb etildi. Shuning uchun qizamiq bilan kasallanish 2012-2017 yillar davomida respublikamiz aholi orasida deyarli kuzatilmadi. 2018 yildan boshlab kasallanish ko'rsatkichi orta boshlab, 2023 yili 100 ming aholiga nisbatan 12,5 holatda ro'yhatga olindi, bu esa 2013 yilga nisbatan 37 marotaba ortganligini ko'rsatadi. Shunday qilib, O'zbekiston Respublikasida 2010-2020 yillar davomida ro'yxatga olingan qizamiq kasalligining retrospektiv epidemiologik tahlili, kasallanishning ko'p yillik dinamikasida ko'payish tendentsiyasi qayd etilganligini ko'rsatdi. Shu bilan birga tahlil etilayotgan yillar mobaynida respublika miqyosida kasallanish ko'rsatkichlarining nomuntazam tebranishlari qayd etildi. Qizamiq bilan kasallanishning asosiy sabablaridan biri emlashdan bosh tortish va ma'muriy hududlarda immunitet tarangligining past bo'lgan aholi sonining ko'payib borayotganligi hisoblanadi. Emlanmagan kichik yoshdagi bolalarda qizamiq kasalligi va asoratlari, shu jumladan o'limni holatining rivojlanish xavfi yuqori. Ko'pincha asoratlar chaqaloqlar va 5 yoshgacha bo'lgan bolalar, 20 yoshdan kattalar, homilador ayollarda kuzatiladi.

Asoratlar odatda kattalarda og'ir kechadi.

Qizamiq kasalligi bilan kasallanishning sabablaridan yana biri bu infeksiyani

shifoxona ichi infeksiyasi xolatida tarqalishidir. Bunday holat deyarli barcha

viloyatlarda shulardan Sirdaryo, Qashqadaryo viloyatlari bolalar shifoxonasi, Andijon

viloyati Xo'jaobod tumani markaziy shifoxonasi, Toshkent shahar tumanlari

shifoxonalarida ro'yxatga olingan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak ,O'zbekiston Respublikasida 2013-2023 yillar davomida ro'yxatga olingan qizamiq kasalligining tahlili shuni ko'rsatadiki,kasallinish absolyut ko'rsatkichi, turli yillarda 0,4-12,5 gacha bo'lganligi aniqlandi. Respublikamizda qizamiq bilan kasallanish holatlari hududlar bo'yicha notekis tarqalgan.

Qizamiq kasalligini kelib chiqish sabablari chetdan kirib kelgan virusning mavsumiyligi va epidemik tarzda keng tarqalishi, ushbu virusga moyil guruh bu 1 yoshgacha emlanmagan va 1 marotaba emlangan bolalar ekanligi, qo'shni davlatlardan, viloyatlardan lo'li millatiga mansub aholini qizamiq bo'yicha noxush epidemik vaziyatli hududlarga borib kasallikni yuqtirib kelishi, shifoxonalarda qizamiqqa gumon qilingan bemorlarni o'z vaqtida faol aniqlanmasligi natijasida bemorlar yuqumli davrida boshqalardan alohidalanmay qolayotganligi, gumon qilingan bemorlar bo'yicha epidemiologik surishtiruv ishlari o'z vaqtida sifatli qilib o'tkazilmayotganligi, somatic shifoxonalarga qizamiq kasalligini prodromal vaqtidagi bemorlarni '' bilan yotqizilishi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Костинов МПИ ммунопрофилактика кори с применением Комбинированных вакцин.Эпидемиология и вакцинопрофилактика Т№С-62.

2. №. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti . Noyabr 2014.

3. "Qizamiq bilan kasallanish dunyo bo'ylab emlash qamrovidagi bo'shliqlar tufayli ko'paymoqda" . Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (VOZ) . 2018 yil 29 noyabr . "AQShda aprel oyi boshida qizamiq bilan kasallanish holatlari qariyb 20 foizga oshdi, deydi CDC ." Reuters . 2019 yil 16 aprel .

4. "Qizamiq - Yevropa mintaqasi" . Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (VOZ)

5. Ludlow M, McQuaid S, Milner D, de Swart RL, Duprex WP (2015 yil yanvar). "Tizimli qizamiq virusi infeksiyasining patologik oqibatlarini"